

AHOLI BANDLIGINI TA 'MINLANISHIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Rashidova Baxti Yaxyaevna

Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi

baxtirashidova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligining rivojlanishi aholi bandligini ta'minlashdagi o'rni va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyatda ayollar o'rtasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kengayib borayotgani, ularning mehnat bozorida faol ishtirok etishi bandlik darajasining oshishiga sezilarli hissa qo'shayotgani ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, kreditlar, subsidiyalar va o'quv loyihalarining samaradorligi baholanadi. Tahlillar asosida Jizzax viloyatida ayollar tadbirkorligi ulushi yildan-yilga ortib borayotgani, biroq moliyalashtirishga kirish imkoniyatlari, raqamli savodxonlikning pastligi va bozor infratuzilmasining yetarli emasligi kabi bir qator muammolar saqlanib qolayotgani aniqlangan. Tezida mazkur muammolarni bartaraf etish va ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *ayollar tadbirkorligi, bandlik, Jizzax viloyati, kichik biznes, mehnat bozori, iqtisodiy faollik, bandlik siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.*

Aholi bandligini oshirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ustuvor yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda O'zbekistonda, xususan Jizzax viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha qator izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Temir daftar" kabi tashabbuslar, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va o'quv markazlarining ochilishi ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda kichik biznes va tadbirkorlik sohasida, xususan, ayollar tadbirkorligi sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar iqtisodiy taraqqiyotning muxim omillaridan biriga aylandi. Mazkur sektorni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida bejizga belgilamadik...[1]".

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida ortirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida «O'zbekiston – 2030» strategiyasi ishlab chiqildi. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab – quvvatlash tizimini mustahkamlash, huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, gender tengligini ta'minlash bo'yicha ham chora-tadbirlar tizimi davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 25 – maqsadida: "Xotin – qizlarni qo'llab – quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash" ni ko'zda tutadi va gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin – qizlarning ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab – quvvatlashga doir islohotlarni o'z ichiga oladi[2]. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish orqali ayollar tadbirkorligini yanada kengroq rivojlantirish

imkoniyatlariga ega bo'lishi shubhasiz. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda band aholining 50 foizdan ortig'i kichik va o'rta biznes sohasida ishlaydi. Ushbu sektor ko'plab rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning yalpi ichki mahsulotiga 50% dan ortiq hissa qo'shadi.

Jizzax viloyatida 2024-yil yakuni bo'yicha faol ayol tadbirkorlar soni 22 mingdan oshdi, ularning aksariyati xizmat ko'rsatish, savdo, tikuvchilik, qishloq xo'jaligi va uy biznesi yo'nalishlarida faoliyat yuritmoqda. Bu esa viloyatda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, ayniqsa uy mehnatiga asoslangan bandlikning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Ayollar tadbirkorligi orqali tashkil etilgan kichik korxonalar va oilaviy biznes subyektlari aholining ijtimoiy zaif qatlamlari, ayniqsa ko'p farzandli ayollar va uy bekalarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zbekistonda bugungi kunda mamlakat aholisining 17 mlndan ziyod qismini xotin – qizlar tashkil etmoqda. Shu boisdan xotin – qizlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi butun O'zbekistonda tadbirkorlikning ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti rivoji hamda umumiy farovonlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda bu kichik biznes va tadbirkorlikda xotin – qizlarning ulushi 25 foizni tashkil etmoqda[3]. Ushbu yo'nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik subyektlari o'rtasida xotin – qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdir. Buning uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda[4].

“Ayollar tadbirkorligi - bu ayollar tomonidan boshqariladigan biznes”. Ushbu atama – o'tgan asrning 30 yillarida AQSh va Yevropa tadqiqotchilari asarlarida paydo bo'lgan. XX asrning oxiri – XXI asr boshida bu ibora yurtimizdagi ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa ommaviy nashrlarda tez-tez tilga olinib boshlandi[5]”.

Yurtimiz iqtisodchi olimlari Q. Abduraxmonov, A. Aripov, M. Jumayevalar tomonidan kichik biznesda ayollar bandligini ta'minlash va oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. M.M.Baltabayeva G.O.Ochilova, G.S. Sharipova, N.R.Annayeva, Z.R. Xusanova kabi olimlar tomonidan ayollar tadbirkorligining rivojlanish tarixi, ayollarning tadbirkorlikka moyilligi va biznes qobiliyatlarini ijtimoiy-psixologik tomonlarini, ayollar tadbirkorligi atamasini falsafiy jihatdan tahlilini, ayollar tadbirkorligida boshqaruv faoliyatini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganishgan.

Ayollar tadbirkorligi faoliyatiga baho berish uchun Respublika miqyosida ayollarning korxonalaridagi ulushi tahlil qilish va ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini baholash g'oyatda muhimdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkor ayollar soni yillar davomida o'sib borish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Biroq oldimizga qo'ygan ustuvor vazifalarimiz erishish va gender tenglikni ta'minlash uchun mamlakatdagi ayollar tadbirkorligi holatiga baho berish, ularni so'nggi olti yillikdagi faoliyatini tahlil qilish kerak (1 – jadval).

1-jadval¹.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni viloyatlar kesimida (2025-yil 1-yanvar)

Viloyat / Hudud	Korxonalar soni (ayol rahbarli)
Toshkent shahri	12 814 ta
Toshkent viloyati	5 598 ta

¹ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/63307-ajollar-ra-barligidagi-kichik-korkhona-va-mikrofirmalar-soni-6-3-ga-oshdi-2>

Viloyat / Hudud	Korxonalar soni (ayol rahbarli)
Samarqand viloyati	3 905 ta
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 866 ta
Xorazm viloyati	2 673 ta
Surxondaryo viloyati	2 656 ta
Buxoro viloyati	2 434 ta
Farg‘ona viloyati	2 035 ta
Navoiy viloyati	2 025 ta
Qashqadaryo viloyati	1 879 ta
Jizzax viloyati	1 366 ta
Sirdaryo viloyati	1 252 ta
Andijon viloyati	1 227 ta
Namangan viloyati	1 130 ta
Jami	43 860 ta

Tahlillarning ko‘rsatishicha, o‘rganilayotgan davr mobaynida mamlakatimizda ayollar rahbarlik qilayotgan firmalarning ulushi qariyb 6,3 foizga oshganini ko‘rish mumkin.

1-rasm²

Ayollar rahbarligidagi korxonalar viloyatlar bo‘yicha tahlil natijalari



² Stat.uz ma‘lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan yaratildi

Ayollar bandligini oshirish borasidagi tadqiqotlar ham ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida ayollarni ish bilan ta‘minlash bo‘yicha olib borilgan ishlar, ko‘plab ilmiy maqolalarda muhokama qilinadi. N. Karimova ayollar bandligi masalasida turli ijtimoiy va madaniy omillarni tahlil qilib, ayollarni mehnat bozoriga jalb etishda davlat siyosatining ahamiyatini ko‘rsatgan. U, shuningdek, ayollarni ishga joylashtirishda gender tenglikni ta‘minlashning zarurligini ta‘kidlagan [6].

Kelgusida Jizzax viloyatida ayollar tadbirkorligi rivojini jadallashtirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- Ayollar uchun imtiyozli kreditlarni ko‘paytirish va garov talablari bo‘yicha yengilliklar berish;
- Tadbirkor ayollar uchun marketing va raqamli iqtisodiyot bo‘yicha o‘quv markazlarini kengaytirish;
- Uy biznesi uchun subsidiyalarni ko‘paytirish;
- Chekka tumanlarda ayollar uchun ko‘p funksiyali biznes inkubatorlari tashkil etish;
- Ayol tadbirkorlarning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga olib chiqishda ko‘maklashish.

Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligi rivojida bir qator muammolar ham mavjud: kredit olishdagi garov ta‘minotining yetishmasligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, raqamli texnologiyalar bo‘yicha ko‘nikmalarning cheklanganligi, bozor talablaridagi o‘zgarishlarga moslashish muammolari va marketing infratuzilmasining sustligi shular jumlasidandir. Viloyatdagi chekka hududlarda ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga kirishish imkoniyatlari shahar markazlariga nisbatan pastroq darajada qolmoqda.

Bu viloyatimiz ayollarining ushbu davrda tadbirkorlikka bo‘lgan ichki motivatsiyasining oshirishga xizmat qiladi.

Chunki, maqsadlarga erishish uchun motivatsiya, tavakkalchilikka moyillik, ijodkorlik, stressga bardosh berish qobiliyati tadbirkor uchun zarur bo‘lgan asosiy xususiyatlardir.

Xulosa qilib aytganda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish Jizzax viloyatida aholi bandligini oshirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bunga esa mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish borasidagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28 - maydagi SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori kabi qonuniy hujjatlar dasturul amal bo‘ldi. Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Shu boisdan ushbu muammolarni hal qilish borasida quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Xotin-qizlarning ta‘lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi:
2. Ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarni faqatgina uy bekasi rovida emas, balki ilm-fan, texnika, yangi texnologiyalar sohalarida ko‘rsatish.
3. Moliyalashtirish va rag‘batlantirishning ko‘p kanalli mexanizmlarini rivojlantirish.
4. Hududlarda yosh tadbirkor ayollar uchun professional konsalting xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, biznes yuritish, bilimni monetizatsiya qilish sirlarini o‘rgatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan yig‘ilishda ayollar uchun qanday yangiliklar kiritildi”- 01.03.2022-y. <https://review.uz/oz/post/shavkat-mirziyoyev-raisligida-xotin-qizlarni-qollab-quvvatlashga-bagishlangan-yigilishda-ayollar-uchun-qanday-engilliklar-kiritildi>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi PF – 158 – sonli “O‘zbekiston – 2030 ” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6600413>
3. <https://tashkenttimes.uz/national/12592-ebd-supports-women-s-entrepreneurship-in-uzbekistan>
4. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-ayollar-tadbirkorligi>
5. Annayeva N. R. “Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (O‘zbekiston misolida)”. Falsafa fanlari
6. N. Karimova (2019). “Ayollar bandligi va gender tenglik masalalari: O‘zbekiston tajribasi”. Xalqaro ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 33(1), 78-85.
7. Карелова Т. Н. Женское предпринимательство в России: состояние, тенденции, перспективы // Женское предпринимательство в экономике России и СНГ. М.: МЦГИ, г. 2001. с.-13.
8. Хоткина З.А. Новый век – новые проблемы: гендерные аспекты труда и занятости в России. Экономист. г.2005.
9. <https://gender.stat.uz/>